



INTERPRETATION OF HUMAN PSYCHOLOGY AND SOCIAL ADAPTATION ISSUES IN CONTEMPORARY UZBEK CINEMA

Dilshod Salomov

Association "O'zbekzargarsanoati"

Deputy Chairman for Local Production, Organizational Affairs, and
Scientific Activities

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18311767>

ARTICLE INFO

Received: 14th January 2026

Accepted: 19th January 2026

Online: 20th January 2026

KEYWORDS

*Uzbek cinema, psychological
drama, personality and
society, isolation, internal
conflict, symbolism, gender
issues, self-knowledge, social
adaptation, artistic
interpretation.*

ABSTRACT

This article analyzes the representation of human psychology, social isolation, and the causes of psychological depression in contemporary Uzbek feature films. As the objects of the study, the films "O'tov" and "Rangsiz tushlar" by Ayub Shahobiddinov, "Qarzdor" by Bahodir Odilov, and "Issiq non" by Umid Hamdamov were selected. Using these works as examples, the author examines the protagonists' internal and external conflicts, their struggles to preserve personal identity, as well as the psychological aspects of gender issues. The article also explores the role of symbolism, minimalism, and directorial interpretation in film dramaturgy in revealing and shaping the characters' psychological depth.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ПСИХОЛОГИИ И СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ КИНЕМАТОГРАФЕ

Дилшод Саломов

Ассоциация «Узбекзаргарсаноати»

Заместитель председателя по вопросам местного производства, организационной
работы и научной деятельности

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18311767>

ARTICLE INFO

Received: 14th January 2026

Accepted: 19th January 2026

Online: 20th January 2026

KEYWORDS

*Узбекское кино,
психологическая драма,
личность и общество,
изоляция, внутренний
конфликт, символизм,
гендерные проблемы,
самопознание, социальная
адаптация,*

ABSTRACT

В данной статье анализируются психология человека, причины социальной изоляции и депрессии личности в современных узбекских художественных фильмах. В качестве объекта исследования выбраны фильмы Аюба Шахобиддинова «Юрта» и «Бесцветные сны», Баходира Одилова «Должник» и Умида Хамдамова «Горячий хлеб». На примере этих произведений автор исследует внутренние и внешние конфликты героев, их борьбу за сохранение идентичности, а также психологические аспекты гендерных вопросов. В статье исследуется



художественная
интерпретация

значение символизма, минимализма и режиссерской
интерпретации в кинодраматургии с точки зрения
раскрытия характеров персонажей.

ZAMONAVIY O'ZBEK KINEMATOGRAFIYASIDA INSON RUHIYATI VA IJTIMOIY ADAPTATSIYA MUAMMOLARI TALQINI

Dilshod Salomov

"O'zbekzargarsanoati" uyushmasi

Mahalliy ishlab chiqarish, tashkiliy ishlar va ilmiy faoliyat masalalari bo'yicha - rais
o'rinbosari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18311767>

ARTICLE INFO

Received: 14th January 2026

Accepted: 19th January 2026

Online: 20th January 2026

KEYWORDS

o'zbek kinosi, psixologik
drama, shaxs va jamiyat,
izolyatsiya, ichki konflikt,
ramziylik, gender
muammolari, o'zlikni
anglash, ijtimoiy
adaptatsiya, badiiy talqin.

ABSTRACT

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek badiiy filmlarida inson psixologiyasi, shaxsning jamiyatdan ajralishi (izolyatsiya) va ruhiy tushkunlik sabablari tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida Ayub Shahobiddinovning "O'tov", "Rangsiz tushlar", Bahodir Odilovning "Qarzdor" hamda Umid Hamdamovning "Issiq non" filmlari tanlab olingan. Muallif ushbu asarlar misolida qahramonlarning ichki va tashqi konfliktlarini, o'zlikni saqlab qolish yo'lidagi kurashlarini hamda gender masalalarining psixologik aspektlarini o'rganadi. Maqolada kinodramaturgiyadagi ramziylik, minimalizm va rejissorlik talqini qahramonlar xarakterini ochib berishdagi ahamiyati nuqtai nazaridan tadqiq etilgan.

Nafaqat zamonaviy dunyoda, balki qadim-qadimdan jamiyatdan o'zini uzoq tutadigan, yoki aksincha jamiyat qabul qilishni istamaydigan insonlar toifasi bo'ladi. Buning sabablari esa turlicha, masalan, ijtimoiy-siyosiy, insonning kelib chiqishi, tashqi qiyofasi, tana tuzilishi, hislatlari va yana boshqalar. Mazkur tadqiqot ishida ayni shu mavzuga oid o'zbek badiiy filmlarini ko'rib chiqib, insonning boshqalardan alohidaligi, buning sabab va oqibatlari, inson ruhiy holatida ro'y beradigan o'zgarishlarni o'rganishga harakat qilamiz.

"O'zbekkino" milliy agentligi buyurtmasiga binoan Yoshlar ijodiy "5-studiya"si tomonidan tasvirga olingan, Ayub Shahobiddinovning "O'tov" badiiy filmi mazmunan ajdodlari sobiq mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan, tuzum va unga ergashganlarga ko'ngildagi alami va g'azabi tufayli, insonlar nigohidan uzoqda, tog' yonbag'rida cho'ponlik qilib yashayotgan, ziyoli tabib Said Ismoil Said Nurmuhammad Said Ubaydullox (Nozim To'laxo'jayev) va uning o'g'li Javohir (Aziz Rametov)ning taqdiri, ularning munosabatlari haqidadir.

Kinoasarda ko'rishimiz mumkinki, Said Ubaydulloh o'z oilasini, ya'ni yakka-yu yolg'iz o'g'lini muhofaza qilish uchun odamlar ko'zidan nari yerlarda, o'z insoniy



ehtiyojlarini qondiradigan hayot tarzini barpo etgancha yashar, o'spirin o'g'il esa kundalik, xo'jalik ishlarini qilgancha kunini o'tkazardi. Tashqaridan qaraganda barchasi ajoyib: suv sharsharadan olinadi, dam olgisi kelsa, g'orlar muntazir, to'rt tomoning esa kenglik, o'zingga xon, ko'lankang maydon bo'lib, yashayverasan. Biroq insoniy ehtiyojlar safiga koshki, faqat moddiy nimarsalar kirsam?! Inson ulg'aygani sari uning ongi yangiliklarga, qalbi esa nozik tuyg'ularga ehtiyoj sezaveradi. XX asrning mashhur faylasuflaridan biri Seren Kyerkegorning tushuntirishicha, "inson ruhiy kamolotining nafosat bosqichida uning ichki dunyosiga hissiyotlar hukmronlik qiladi. Hayotdan ko'proq zavq-shavq, lazzat olishga intiladi. Biroq, inson qanchalik his-tuyg'u ta'siriga berilsa, shunchalik o'z hayotidan ko'nikmaslik kasaliga giriftor bo'ladi"¹. Inson shaxs darajasiga ko'tarilmog'i uchun unga erkinlik zarur. Javohirga ayni ruhiy erkinlik yetishmas, bu ko'proq otasining belgilab bergan chegaralaridan ham ko'ra, sharqliklarning qon-qoniga singib ketgan mentalitetga dahldor edi. Har holda otasi uni shunday tarbiyalagan. U o'ziga yetishmayotgan axborotlarni olishni istar, otasidan bekitiqcha jurnal o'qir, sinfdoshi Dilim (Zamira Beshimova) ni esa sevardi. Dilim Javohirni harakatga keltirish uchun ayollarga xos makrlarini ishga solar, uning rashkini keltirish uchun gapiga Tohirni aralashtirardi. Bu xatti-harakat Dilimning Javohirga nisbatan mujdasi edi. Biroq Javohir ketolmasdi. Javohir televizor olgach o'zidagi bo'shliqlarni tv-dasturlar orqali to'ldirar, o'rganganlarini esa g'or devorlariga chizardi. Qiz ta'kidlaganidek, zamonaviy Neandertal. Oradan vaqt o'tib, shahardagi o'qishidan qaytgan Dilim yana Javohir bilan ko'rishadi. Dilim endi o'zgargan, avvalgidek qishloq qizi emasligi uning o'zini tutishi, so'z leksionida yaqqol namoyon bo'ladi. undagi o'zgarishlar dastlab Javohirni hayron qoldirgan bo'lsa, Dilimning turmushga chiqayotgani haqidagi xabar, yigitning muvozanatini butkul buzadi. U Dilimni yo'qotishini, qalbidagi muhabbatdan mosuvo bo'layotganini bor fojeasi bilan angladi. Holbuki, uning qalbida shundan boshqa hech narsa yo'q edi. U sof ko'ngil bilan ulg'aygan, bunday qalbdagi muhabbatning tafti boshqacha bo'ladi. Javohirning muhabbatida xirs yo'q edi. Bu esa bu ishqning qadrini karrasiga orttirar hamda nozik tuyg'ularning qadrini oshirardi. Aslida, Dilimning unga nisbatan har gal ishlatadigan "qo'rqq" jumlasini yuragini pora-pora qilsada, u qadar ta'sir qilmas, biroq to'y xabari uning jur'atini uyg'otadi va otasining qarshiligiga qaramay, shaharga, armiyaga qochib ketadi. Bu Javohirning ichki olamida aks etib kelayotgan jamiyatga intilishning ma'lum sabablarga ko'ra ro'yobga chiqishi edi. "Inson – kishi, uning ongi, odob-ahloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi, talab-ehtiyojlarining qondirilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyatiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat qanday bo'lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui bo'lgan inson ham shunga mos bo'ladi". Javohir doim undan bekitilgan, yomon, deya izohlangan va o'zi ixotalangan ommaga qarab ketardi. Bu ketishda uning hamrohi g'azab edi. Tasvirda rejissor buni o'ziga xos tarzda ifodalaydi. Ya'ni Javohir ketgach, uni qaytarish uchun harakat qilayotgan otasi nomigagina o'rab qo'yilgan hovli devorini buzib o'tadi. Bu devordan shundoq ham atrof muhitni ko'rsa bo'lar, undan hamma oshib o'tolardi. Javohir ulg'aygach bu devorlar kichik bo'lib qolgan,

¹ Choriyev A. "Inson falsafasi". O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nahsriyoti. Toshkent-2007. 349-b



uning tashqariga oshiqishi insoniy nuqtai nazardan tabiiy ham edi. Endi esa devor buziladi.

Said Ubaydulloh qanchalik o'g'lini tashqi dunyodan alohida saqlashga harakat qilmasin, ayni dunyoda buning imkoni yo'q. O'g'il ketgach uni kutishdan boshqa imkoni qolmaydi. Qaytishiga umid qilib, yo'l qarab vaqtini ketkazadi. Inson hayoti turli vaziyatlar, masalalar va ularning yechimlaridan iborat. Said Ubaydulloh shu vaqt mobaynida Zaynabni zolim aka-ukalari changalidan qutqaradi. Zaynabni unga moyilligi esa ularning darddosh ekanligidan, ya'ni boshqalar Ubayni ham, Zaynabni ham telba, deb o'ylashlari va buning oqibatida ularning muloqoti uchun boshqa tanlov qolmaganidan edi. Ubay irodali, ruhiyati mustahkam, o'zining prinsiplariga ega – shaxs o'laroq shakllangan kishi. U ko'ngli yarim Zaynabga ozor berishni istamaydi, biroq uni himoya qilish uchun uyulanadi. Odamlar ommasi, urush ko'rib, odam o'ldirib, ortga qaytgan Javohir – otasi himoya qilgan tuzum mafkurasi ongiga singib ketgan kimsaga aylanib qolgandi. Buni uning otasiga jahl qilib, "senlar uchun qon kechib yuruvdimmi", degan gapidan ham anglasa bo'ladi. Holbuki, 1979-1989-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan Afg'on urushi mantiqan yurtni himoya qilish emas, o'zga davlatni bo'ysundirish, yerini tortib olish va u yerda hukmronlik qilish uchun edi. Javohir esa buni Vatan, oila oldidagi burch, deya hisoblay boshlagandi. U ketayotganda oppoq qog'oz misol edi. O'zgarib qaytdi. Uning alamzadaligi tarqamagan, aksincha, ortgan. U ortga qaytganida siyosiy vaziyat o'zgargan, g'oyalari ongiga singib ketgan mamlakat parchalanayotgan, jamiyatda xaos hukmron, qarashlar o'zgarayotgan bir paytda Javohir to'g'ri, deb bilgan g'oyalar o'z ahamiyatini yo'qotib borayotgandi. Bu uning vujudida ham o'z ta'sirini ko'rsatar, alahsirash, xotirjamligi yo'qolgan. U nimadandir alamini olishi kerak edi va bu televizor bo'ldi. Televizor – mafkura targ'ibotchisi, manipulyatsiya quroli. U yaratilganidan beri ayni shu vazifani ortig'i bilan bajardi. Javohir o'z xatosini angladi, otasi uni davolash uchun ko'mib qo'yganida, "qachongacha meni kamsitasiz, dada", degan gaplari ohangida, otasining doim haq bo'lganini anglab yetganiga sha'ma bor. Alam, umidsizlik inson o'zligini anglab yetganidagina tugaydi. Jamiyat bilan munosabatlarda esa bu juda muhim, aks holda Film ijodkorlari aynan shu g'oyani olib chiqishga harakat qilishgan.

Kinoasarning muvaffaqiyati unda haddan tashqari sirli va ramziy kadrlarning kamligida, sababi tomashabin film ko'rayotib, topishmoq topishga berilib ketmaydi, faqatgina qahramon holati bilan hamnafas bo'ladi, uni tushunishga intiladi. Filmida faqat chanqovuz ohangidan foydalanilangani ham urg'u aynan film qahramonlariga qaratilgani uchun, degan tasavvur uyg'otadi. Mazkur film ijodkorlari maksimum minimalizm yo'lidan yurishgan. Masalan, operatorlik ishi ham alohida ajralib turmaydi. Qahramonlarni o'z holicha ifodalaydi, chiroyli kadrlarga urinilmaydi. Yashalayotgan hayotni hamda qahramonning yuz ifodasi, ko'zi, harakterini boricha ko'rsatishga intilingan. Bu esa tomoshabinni mavjud holatni tushunishi, chalg'imasligi uchun juda muhim. Aytib o'tish o'rinliki, film o'zbek kinematografiyasida alohida o'ringa ega.

Erkin A'zam hamda rejissor Bahodir Odilov hamkorligida tasvirga olingan "Qarzdor" badiiy filmi - jamiyat oldida o'z insoniy burchlarini bajarish barobarida, buning qanchalik og'ir va mashaqqatli ekanligini o'z tanasida his qilayotgan, boshqalarning og'irini yengil,



yo'g'ini bor qilish uchun o'z orzu-maqсадlarini qurbon qilgan Bahrom(Fahriddin Shamsimatov)ning taqdir yo'li haqida.

“Konflikt – bu turli qahramonlar manfaatlari o'rtasidagi kurash, to'qnashuvdir. Konfliktning mazmuni esa u yoki bu ziddiyatlardan iborat. Konfliktsiz ssenariy (kinodramaturgiya) bo'lishi mumkin emas”².

Film prologida shahardan qaytgan, dong'i ketgan shoir sinfdoshi bilan tepalikda suhbat qurish asnosida Bahromning kimligi, shaxsiyati, kurashlari hamda tanlovlariga oydinlik kiritiladi. Filmdagi asosiy kurash mavjud qiyinchiliklar oldida insonning o'zligini saqlab qolishi, tor mazmunda bosh qahramon – Bahromning dom-daraksiz xorijga ketib qolgan akasini ortga qaytarish ishtiyoqi. Kartinada konflikt bosqichma-bosqich keskinlashib bormaydi, ziddiyatlar har bir epizodda individual shakllanadi va ularning barchasi birgina Bahrom atrofida yig'ilishi orqali ko'lamdorlik kasb etadi. Konfliktning bunday tadriji voqealarni do'st, opa, tog'a, jiyan, aka singari qismlarga bo'lish orqali ayon bo'ladi. Mazkur konfliktlar kartinaning asosiy ziddiyatlaridan. Chunki ayni shu omil ilm cho'qqisiga ko'tarilayotgan Bahromni kundalik yumushlar jariga uloqtirgan. Do'sti bilan bo'lib o'tadigan suhbat esa shuni tasdiqlaydi:

“Shoir do'sti: — Sinfdagi zo'rimiz sen eding o'zi. Aspiranturani tashlamaganingda, bizga o'xshaganlarga non yo'q edi-ya!

Bahrom:— Boboy yotib qoldilar-da. Qarashadigan odam yo'q. Aka o'zi bilan, opa o'zi bilan. Keyin — armiya, uylanish tashvishi. Bu yog'i ulanib ketdi-da, bo'lmadi”.

Hamma ishga balogardon Bahrom: akasini qaytarish uchun yo'l puli topadigan ham, jiyani Barnoning kontraktini to'laydigan ham, ammaga kerakli dorilarni olib keladigan ham, hasis tog'aga beminnat xizmat qiladigan ham, qo'shnilar iltimosini bajaradigan ham, yangasiga ro'zg'or tebratishda ko'maklashadigan ham u. Buning barchasi qahramonning muhit bilan o'zaro ziddiyatga kirishganidan dalolat.

Film voqealaridagi ayrim epizodlarda Bahromning ochiqdan ochiq boshqa kishilar bilan konfliktga kirishishi aks etgan. Masalan, Barnoning izzat-nafsigacha tekkan ustoz bilan yoqalashuvi, choyxonada riyokor pochchasi yuziga haqiqatni to'kib solishi kabi sahnalar shuni tasdiqlaydi. Adabiyotshunos olim Shuhrat Rizayev rejissyorning Bahrom obraziga nisbatan quyidagicha ta'rif beradi: “B.Odilov Bahromning ma'naviy qarzdorligini ideallashtirish darajasida yoqlab talqin qiladi. Uning barcha yozg'irish, iztiroblanishlarini, “o'zbekchilik” atalmish milliy-etnik majburiyat tuyg'usini Bahrom misolida ulug'lashga moyilligini syezdiradi. Zero, film so'nglarida go'yoki ziqna ammaning o'limlik uchun yiqqanini Rossiyadagi akani qaytarib kelish maqsadida Bahromga berib yuborishi va uvada ikki yuz so'mlik pullarning shamolda sochila boshlagani ramzida rejissyor bosh qahramonning yozg'irishlari behuda ekanini, uning xatti-harakatlari qarindosh urug'lar tomonidan mehr-oqibat bo'lib qaytayotganini ta'kidlashga qaratadi. Vaholangki, qissada shunday tasvir keladi: “Nogahon shamol bir guvrani, uning qo'lidagi pulni har yonga chirpirak qilib uchira boshlaydi. Hovli sahni bir zumda ikki yuz so'mlik bilan to'shaladi. Kiprik qoqqudek fursat o'tmay, bu to'shama to'zon ostida o'zgacha tus oladi. Ko'kish. Dollar! To'zon battarroq quturib keladi-yu yelimxaltadagi pulni ham tortqilab-to'zg'atib,

² Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. - B.23.



xazondek havoga sovura ketadi. Hovli girdibod ichida qoladi". Bu tasvir kinodagidan tamomila boshqacharoq fikr-xulosalar uchun turtki beradi. Pul to'shamining dollarga aylanishi, qolgan boshqa pullarning ham xazondek havoga sovurilib, hovli girdibod ichida qolishi voqelik, zamonning dollar vatani monand butkul o'zgarayotgani, ana shu sharoitda endi eski tushunchalar bilan yashash mumkin emasligi, "to'zon battarroq quturib", ya'ni vaqt o'ta shitoblanib, dunyo tamom boshqa tusga kirayotgan bir manzarada urug'-aymoqning mayda maishiy tashvishlari bilan andarmon umr o'tkazish, ayni misolda Bahromdek iste'dodli, intellektual shaxsning maishiy yumushlarga o'ralashib o'zligini yo'qotib, qurbon qilib borayotgani bu faqat shaxsning emas, shunday shaxslarni yaratayotgan xalqning fojiasi, "yo'qotish" ekani anglanayotgandek bo'ladi. Nega shu so'nggi ramziy lavhalarda Bahrom "qochiblar ketsang-da bosh olib!", "xuddi baridan qarzdorsan, qarzdor!" deya alanglanadi? Sababi, u avvalo, o'zidan qarzdor. O'zi insoniy bilim-quvvatini, salohiyatini yuzaga chiqarmay, shu maqsadda intilmay, kurashmay, yakkash umrini aka, opa, amma-tog'alariga qurbon qilib yurgani uchun alamzada, o'z vijdoni oldida qarzdor. Alloh bergan ne'matning isrofi uchun aybdor"³. Ko'rinadiki, shu jabhada konfliktning dramaturgik yechimi uning filmdagi rejissorlik talqinidan bir muncha farq qiladi va bu epizodning kinoga ko'chishi ta'sirchanlikni yanada oshirgan, film mohiyatini yanada chuqurlashtirgan bo'lar edi. "Konfliktlar personajlarning ichki olami, ruhiy kolliziyasi bilan, ularning ongi, his-tuyg'ulari bilan chambarchas bog'lanadi. Demak, konflikt ikki xil ko'rinishga ega. Tashqi va ichki. Tashqi konflikt ... personajlar o'rtasidagi ochiq kurash holida yuz beradi. Ichki konflikt, yoki kolliziya ishtirok etuvchilarning bo'lgan voqea-hodisalarni ongidan o'tkazishi, ruhiyatida bo'lib o'tgan yoki yuz berishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni tushunish, anglash, tahlil qilish oqibatida kechinmalar, iztiroblarga duch kelish orqali amalga oshadi. Ya'ni kurash, ziddiyatlar, to'qnashuvlarning in'ikosi shaklida, aks sadosi sifatida namoyon bo'ladi, demak konfliktlarni insonning nozik ruhiy iztiroblaridan qidirmoq kerak. Ular qalbdagi harakatlarda va fikrlarda uchraydi. Ziddiyatlar inson ruhining, psixologiyasining tahliliga borib taqaladi"⁴.

"Qarzdor" filmida ham bu kabi ichki konfliktlar bir nechta epizodlarda mavjud bo'lib, har bir ziddiyat Bahromning ruhiyatiga og'ir ta'sir qiladi, ojizlanib boradi u. Maktabda o'quvchilar to'g'ridan-to'g'ri uning ustidan kulishi, ko'chada pochchasining uni obro'sizlantirishga urinishidan jig'ibiyroni chiqadi, jiyaniga shahmatda mag'lub bo'lgach, hayoti omadsizliklardan iboratligiga butkul ishonadi va bundan jahli ham chiqib ketadi. Lekin, holbuki, u erkak bo'lsada, to'kiloladigani yo'q. Atrofida gilarining o'z dardlari yetarlicha. Shu o'rinda film davomida shoir do'sti bir necha bor eslatishini so'rgan, o'smirlikda yozilgan satrlar huddiki uning shioriga aylanib qolgandek, hayotning zayli esa, shu kabi ko'rinish olgandek tuyuladi: "Kimdir baxtli bo'lmog'i uchun, Kimdir baxtsiz bo'lmog'i kerak". Kartinada bunga qator misollar bor: qishloqqa betob onasini ko'rish uchun qaytgan shoirning ziyofat-u, kayf-u safodan bo'shamay mushtiparidan xabar ololmayotgani yoki xorijsa ishlash uchun ketgan akaning ko'ngil mayli yo'qligi sabab, o'z oilasidan voz kechib, boshqa ayolga ilakishgani yoki Bahromning taqdiri.

³ Rizayev Sh. Iztirob san'ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2013. - B.259-260.

⁴ Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: Adabiyot va san'at, 2000. - B.30.



U qanchalik cho'rtkesar va qaysar bo'lmasin o'z tuyg'ularini ochiqloqlamaydi ham. Fayzixol ismli bevani yoqtirsada, buni ma'lum qilmaydi, huddi shunday Fayzixolning ko'ngli ham Bahromga tushgan. Ikkisining taqdiri o'xshash, biri eridan, biri ayolidan ayrilgan, biri otasiz bolani, biri onasiz bolani ulg'aytirmoqda. Film davomida ular birlariga aytarli biror so'z ishlatishmaydi, lekin mashina o'chib qolganda, so'rovsiz ham Fayzixolning itarishga yordamlashishi yoki akaning oldiga ketishini eshitib, unga pul berish kabi sahnalar qalb-qalbga bog'langanini ko'rsatadi. Shunda ham Bahromning savollari yetarlicha, u shundoq ham qo'ni-qo'shnisi g'iybat qilayotgan ayolni gap-so'zga qoldirishni istamasa, qo'shimchasiga onasining roziligini ham olishi kerak. Bahromning ichidagilar u yolg'iz qolganda yuzaga chiqadi. "Zumrad, nima qilay, o'zing ayt? Bizni tashlab ketganingga, mana, yetti yil bo'ldi, yetti yil! Lekin birov meni sening xotirangga xiyonat qildi deyolmas. Nachora, endi sen yo'qsan. Seni asrayolmadim, saqlab qololmadim. Sen uni bilarding, Zumrad, o'shanda tepangda parvona edi. U ham senga o'xshab mayin-muloyim, menga mehribon. Bu sho'rlik nima qilsin? Sendan keyin, uzoq yurtlarda rizq qidirib yurgan erining o'ligi kelib, buning ham bag'ri tilinib qolgan. Biz nima qilaylik, Zumrad? Xudoning panohiga bizdan oldin yetgan odam, ayt, nima qilaylik biz?". Rejissor film yakunida ularning taqdiriga alohida to'xtalmaydi. Zero, shundoq ham sofsamimiy muhabbat bor yuraklarning keyingi taqdiri aniqdek, ular birlashadigandek. Bahrom esa orsiz akasini olib kelish fikridan voz kechadi. Aka ham o'z yo'lini tanlagan. Kishi qanchalik ko'ngil mayliga rizolik bermasin, otam o'ylantirgan, onamning rayi edi, deya bahona qilmasin, bu boshqa ayolni, deb uch murg'ak farzandini tashlab ketishni, akaning qarorini oqlamaydi.

Xulosa o'rnida, inson hayotni qadrlashi, unga berilgan ne'matlarga shukur keltirishi zarur va hamisha bir qadam tashlanishidan avval keyingi ro'y berishi lozim bo'lgan voqealar uchun mas'uliyatni o'z yelkasiga olishi talab etiladi. Hayot qanchalik murakkab bo'lmasin, uning o'ziga xos ijobiy taraflari mavjud. Ba'zida yurakni saqlab qola olish ham, mavjud vaziyatdan kelib chiqib o'z iqtidoridan foydalana olish ham o'ta muhim. "Qarzdor" filmi – o'tkinchi hayotda insonning ruhiy bosimlarga qaramay o'zligini saqlab qola olishi, shaxsiy yutuqlarga erishmasada, inson o'laroq, oddiy amallar bilan, o'zining oliy vazifasini bajarishi haqida.

Ijodkorlar o'zlari yashab turgan davr muammolari, ularning inson ruhiyatiga ta'siri haqida ko'proq o'rganishga, ularni tasvirlashga, muammoni sabab va oqibatlari bilan ko'rsatib, yechim berishga harakat qilishadi. Kinorejissor va ssenariynavis Umid Hamdamovning qalamiga mansub "Issiq non" va "Rangsiz tushlar" asarlari bugungi kishilik jamiyatlarida ayollar bilan bog'liq inqirozli holatlar, ruhiy tushkunlik sabablari haqida kino tilida tushuncha berishga intiladi.

2018-yilda tasvirga olingan "Issiq non" badiiy filmi o'zbek kinematografiyasida o'ziga xos, muvaffaqiyatli loyiha sifatida kutib olindi. Sababi film syujeti real voqealarga asoslangan holda, ramziy ifodalar bilan boyitilgani, dolzarb mavzuga urg'u berilgani bilan



bog'liq. Taniqli kinorejissor Yusuf Roziqov mazkur kartinani "inson ruhiyati haqidagi samimiy film"⁵, deya ta'riflaydi.

"Issiq non" filmi bir oila taqdiri, uch xil yosh, uch xil dunyoqarash bilan bir maqsad sari, ya'ni oilani asrash yo'lida harakat qilayotgan qahramon ayollar haqida. Garchi film voqealari 13-14 yosh atrofida o'spirin qiz Zulfiya (Zarina Ergasheva) atrofida sodir bo'lsa-da, turli rakurslardan qaraganda buvisining (Munavvara Abdullayeva) ham, kelinoyisi Norgulning (Feruza Saidova) ham qismati o'xshash, maqsadlari va intilishlari bir.

Zulfiya – mehrga tashna, o'z oilasi, ota-onasi bilan yashashni orzu qiladigan, uni tashlab ketgan yaqinlarini eng yaxshi, deya bilgancha ular haqida turli afsonalar to'qib, o'z yolg'onlariga o'zi ishonib yashayotgan qizaloq. U onasidan biror moddiy manfaat kutmas, hatto ularni o'zi boqib olishga tayyor shijoatga ega. Ularning yoniga borish uchun esa ishbilarmonlik bilan pul to'playotgan, onasining bir qo'ng'irog'iga umid qilib, undan mujda kutayotgan norasida. Zulfiyaning karakteridagi isyonkorlik, jizzakilik va asabiylik borliqning achchiq va og'riqli haqiqatlariga juda kichikligidayoq duch kelganining belgisi.

Norgul kelinoyi – o'zi bilan sodir bo'lgan barcha mushkulotlarga ko'ngan, yonida suyanchig'i yo'q, erkakning ham mas'uliyatini yelkasiga olib, jamiyki uy yumushlari, ro'zg'or tebratish, hatto loy suvoq qilsada, shunda ham qaynonasidan tanbeh eshitib turadigan, mehnatkash ayol. Uning hammadan farqli bir hislati bor, dunyoqarashi, falsafasi boshqacha, u qiynalsa ham dod solmaydi, hayotidan nolimaydi, jimgina, o'zbekona hayo bilan yashab, farzandlarini shunday qiyin vaziyatda ham tarbiyalamoqda. Farzandlari uchun shu tariqa o'zini qurbon qilayotgan va aynan shu orqali oilasini saqlab qolayotgan matonat sohibasi u.

Buvi – u o'zining yolg'onlari bilan oilani asrab kelmoqda. Ayni uning yolg'onlari tufayli oila tinch hayot kechiradi. Ba'zi epizodlarda, xususan, kichik nabirasi Muslimaga ish buyurganida yoki Zulfiyani xamir mushtlashga undaganida, nabiralarini shafqatsiz hayot sinovlari uchun kuchli qilib tayyorlaydigandek tuyuladi. Shuningdek, u oilasi kamchiliklaridan boshqalar xabar topishini istamaydi.

Kinoshunos Shohida Eshonboboyeva ushbu filmga quyidagicha ta'rif beradi:

"Issiq non" psixologik dramasida ota-ona mehridan mosuvo bo'lib, maktab-internatda o'qigan Zulfiyaning ruhiyati bilan jamiyatning ijtimoiy qonuniyatlari o'rtasidagi ziddiyat xususida zalvorli fikr aytilgan. Film ijodkorlari balog'at ostonasidagi qizning tashqi ta'sirlar zarbasiga o'ta chidamli ruhiyatini jiddiy tadqiq etadi. Uzoq muddat oyisining diydoridan benasib yashagan Zulfiya eng og'ir damlarda ikki bolaning onasi, eri bedarak yo'qolsa-da, taqdiriga tan berib yashayotgan kelinoyisidan mehr topadi. Rejissorning yutug'i – ana shu tandemni yarata bilganida. Aktrisa Feruza Saidova va debyutant Zarina Ergasheva ijrosida azaliy milliy qadriyatlarga itoat, ularni e'zozlash bilan o'smirlarga xos maksimalizm o'rtasidagi muvofiqlikning zimdan kurashini ko'ramiz. Puxta qurilgan novellalar filmning umumiy g'oyasini yoritish uchun xizmat qilar ekan, ssenariynavis va rejissor Umid Hamdamov gender mavzusidagi davr muammolari

⁵ <https://www.google.com/amp/s/oz.sputniknews.uz/amp/20190919/zbekcha-Kinoshok---Umid-amdamov-Issi-non-aida-nima-dedi-12455572.html>



haqida ham tagma'no fikr aytishga intilgan. Zulfiya o'g'il bola sinfdoshi bilan do'st tutinib, unga ishonadi, aldashi mumkinligini xayoliga ham keltirmaydi, lekin xuddi qariganida o'g'li suyanchiq bo'lishini kutgan onaning umidlari oqlanmagani, bir vaqtlar sevgan erining safardan qaytishini kuta-kuta qalbi huvillab qolgan kelin kabi axiyri aldanadi. "Issiq non" kartinasida voqealar poetik yo'l bilan, pand-nasihatdan xoli tarzda, musavvirning manzarali polotnolari singari chiroyli ifodalangan"⁶.

Filmda turli ramziy simvollar orqali qahramonlarning holatini ifodalashga, ularning ichki olamida ro'y berayotgan hodisalarni obrazli tasvirlashga urinishlar seziladi. Kadrda ko'rinayotgan har bir tasvir va detal ma'lum bir fikr beradi. Ushbu tahlilda boshqa kinoijodkorlar o'z ilmiy maqolalarida qayd etmagan bir qator shunday ramziy vositalarga to'xtalamiz. Masalan, film avvalida qorong'u tunnelga kirgan aftobus ko'rsatilsa, film yakunida tunneldan yorug'likka chiqayotgan aftobus ko'rsatiladi, bu orqali rejissyor va rassom barcha masalalar oydinlashgani haqida tomoshabinga belgi bersa, kichik qizaloq osmonga qaragancha, faqatgina ovozi kelayotgan, lekin o'zi ko'rinmayotgan samalyotni izlab, onasidan uning qayerdan uchayotganini so'raydi. Ushbu epizod orqali kinorejissyor qahramonlar hayotidagi orzularni mavhumdek, ko'rinmasdek ko'rsatib va orzularning o'ziga xos shovqinini tasvirlashga urinadi. Film yakunida osmonda ko'ringan samalyot ham – endi orzularning shakl-u shamoyili haqida tushuncha hosil bo'lganini anglatadi. Norgul kelinoyining ko'l bo'yiga borib unsiz yig'lashi, uning ham qalbida dard to'lqinlari ovozsiz, biroq shiddat bilan oqishini, shuningdek, o'z nolalari ko'z yoshlariga aylanib, ko'l suviga qo'shib ketishidan yengil tortib, yana hayot charhpalagiga o'zini otadigan metin irodali nozik hilqat ekanidan darak.

Filmda ishlatilgan musiqalar ovoz ohanglaridan iboratki, ular ruhiyat tovushi va holatini ifodalab kelgan. Bundan tashqari, devoriga loy suvayotgan Norgul, hamirni men yosh bola emasman, deb mushtlayotgan Zulfiyaning qismatiga bundan buyon roziligi, ayni shu taqdirni ularning qabul qilganiga guvoh bo'lamiz. Kinorejissyor Umid Hamdamov "Issiq non" filmi haqida bergan intervyusida shunday fikrlarni bildirgan: "Hozirgi globallashuv davrida absurd savollar ko'p. Filmda shunday savollarga javob topmoqchi bo'lganmiz. Bugungi kunda juda ko'p oilaviy qadriyatlar yo'qolib ketyapti. Bu go'yo ona tilmizga, umuman qadriyatlarimizga putur yetkazadigan darajada xavf solayotgandek. Shunday holatda sabr va mulohaza bilan yaqinlarimizning yonida bo'lishga harakat qilsak, ularni saqlab qola olamiz"⁷.

Xulosa o'rnida, "Issiq non" filmida o'zining sukuti bilan isyon qilayotgan, ruhiy og'riqlariga qaramay, barcha qiyinchiliklarga bardosh berayotgan hozirgi kun o'zbek ayoli timsoli bor. Inson faqat o'z oilasi bag'ridagina hotirjamlik va baxtni his qiloladi.

Umid Hamdamov ijodida ayollar mavzusi alohidalik kasb etmoqda. Buni "Issiq non" filmi g'oyasidan ham bilib olishimiz mumkin. U ayollar ruhiyatini o'rgangani, ularning shaxsiyatidagi muammolarni kinematografik til jihatdan yaxshi tadqiq etgani seziladi. Ijodkor ssenariysi asosida Ayub Shahobiddinov tomonidan tasvirga olingan "Rangsiz tushlar" filmi psixologik drama janriga xos bir qancha elementlarga ega. Oliy ma'lumotli,

⁶. <https://www.uzanalytics.com/madaniyat/5463/>

⁷ <https://www.uzanalytics.com/madaniyat/5463/>



bir necha tilda so'zlasholadigan qiz otasining roziligisiz, xorijlikka turmushga chiqishi va shundan so'ng uning hayotida ro'y bergan noxush, fojiali voqealar, uzoq yillik qamoq va ota uyga qaytish, yaqinlari tomonidan qabul qilinmaslik, jamiyatdagi boshqalarning unga nisbatan keskin va sovuq munosabati – bosh qahramon Kashmira (Feruza Saidova)ning ruhan va ma'nau yo'lga izlanishiga olib keladi. Hech kim xatodan ixotalanmagan va ba'zida buning sabablari bilan qiziqish o'sha insonning keyingi harakatlaridagi sovuqqonlik va alamzadalikning oldini olishi mumkin. Kashmiraning ziyoli ayolligi, o'z-o'zini boshqara olayotgani – bu uning xulosalari bilan bog'liq. Lekin, xulosalar o'zgaruvchan bo'lishi, qabul qilinmayotgan odamning ijtimoiy xavfini oshirishi yoki aksincha, shaxs sifatida mavjud bo'lgan bir insonni qurbon bo'lishiga olib kelishi mumkin. "Uning timsolida rejissyor aldangan, olib qochilgan, sotib yuborilgan ayollarning umumiy qismatini ko'rsatishga urinadi. Kashmira obrazining ramziyligi nafaqat ismidan (Hindiston va Pokiston orasida qolib ketgan aynanchli ahvoldagi o'lka – Kashmir), balki oila a'zolarining aksariyati nomsiz ekanidan bilinadi. Kashmiraning oilasi – shunchaki sassiz, nomsiz ramzlar, ular kinoning tadqiqot obyekti bo'lmish ayolning qiynoqlarini ochib beradigan eksponatlardir". E'tiborli jihati shundaki, Kashmirani tushunishga urinayotganlar - ayollar. Biroq, ularning bu harakatida Kashmirani ongli tushunishdan ko'ra, ayollarga xos achinish, rahmdillik ko'proq. Afsuski, ularning hech biri Kashmira bilan ochiq gaplashib olishga, ko'nglini ochishiga sharoit yaratishga intilmaydi.

Filmda bir qator qarama-qarshi obrazlar bor. Xususan, Kashmira va u bilan xorijda bo'lgan Nargiza. Ularning hayotga bo'lgan qarashlari boshqa-boshqa. Biri mavjud holatga ko'nikib, yengil hayot istayotgan bo'lsa, ikkinchisi yana qayta o'z o'rnini topishni, qayta xato qilmaslik ilinjida yashayotgan ojiza.

Kashmirani butkul jamiyat qabul qilmayotgan bo'lsa, ukasining o'g'li, jiyani bilan ham deyarli shunga o'xshash holat, onasi tashlab ketgan, yaqinlaridan yetarlicha mehr ololmayotgan bolakay – Kashmirani o'zi uchun ona sifatida kashf etadi. Onasining spektakliga tushib, uni Medeya obrazida ko'rishi bolaning umidlarini chil-chil sindiradi.

Ruhiyatda sodir bo'ladigan jarayonlar bevosita atrof-muhitga bog'liq va ular qachondir kishi shaxsiyatida bo'y ko'rsatadi. Shu sabab, nafaqat ayol va bolalar, balki, jamiyki, odamzot ko'ngli bilan hisoblashish, eshitish, anglash, qabul qilish — sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli fojialarni oldini olib, jamiyatning farovonlashishiga olib keladi.

References:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirzayev S. O'zbek kinosi: tarix va zamonaviylik. – Toshkent: Fan, 2016.
3. Abduqodirov A. Kino san'ati va badiiy tafakkur. – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
4. Salayev F. Zamonaviy o'zbek kinosida badiiy izlanishlar. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
5. Yuldasheva N. San'at va jamiyat: ijtimoiy-madaniy tahlil. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.